



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI
TERMIZ FILIALI**

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60910600 – Oliy hamshiralik ishi
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60910600 – Oliy hamshiralik ishi

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI TERMIZ FILIALI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: DAVLATOV SALIM SULAYMONOVICH

Buxoro davlat tibbiyot instituti

fan doktori (DSc)



A'zo: PAT CLARKE

Liverpool John Moores University (Buyuk Britaniya)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260120
Xulosa raqami	1314
Xulosa sanasi	08.07.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI TERMIZ FILIALI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Islom Karimov ko'chasi, 64-uy. Litsenziya: № 577551, 14.02.2018. Guvohnoma: MAS № 0000394, 23.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Oliy hamshiralik ishi
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60910600
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 577551, 14.02.2018
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60910600 – Oliy hamshiralik ishi
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60910600 – Higher Nursing
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60910600 – Высшее сестринское дело
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	60 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Islom Karimov ko'chasi, 64-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Qisman muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Qisman muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

O'rganilgan hujjatlar hamda filial faoliyati yuzasidan to'plangan dalillar asosida ta'lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta'minlash tizimi kompleks baholandi. Tahlil natijalari filialda ta'lim dasturini boshqarish bo'yicha zarur tarkibiy tuzilma va asosiy boshqaruv mexanizmlari shakllantirilganini, ularning ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qilayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, 1.3-mezon bo'yicha sifat siyosatining ilmiy kengash tomonidan tasdiqlanganini tasdiqlovchi hujjatlar hamda uning rasmiy veb-saytda e'lon qilinganini tasdiqlovchi dalillar taqdim etilmagani sababli mazkur mezon qisman muvofiq deb baholandi. Biroq filial rahbariyati ushbu kamchilikni yangi o'quv yiliga qadar bartaraf etish bo'yicha aniq muddatlarni o'z ichiga olgan chora-tadbirlar rejasini taqdim etgani ijobiy holat sifatida qayd etildi. Shuningdek, 1.4-mezon bo'yicha mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari monitoringi natijalarini tizimli ravishda hujjatlashtirish hamda ularni ta'lim dasturi parametrlariga integratsiya qilish zarurligi aniqlangani bois ushbu mezon ham qisman muvofiq deb baholandi. Qolgan mezonlar bo'yicha ta'lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta'minlash tizimi akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga javob berishi qayd etildi hamda yo'nalish umumiy baholash natijalariga ko'ra muvofiq deb topildi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Taqdim etilgan o'quv-me'yoriy hujjatlar, o'quv rejalari va fan dasturlari asosida ta'lim dasturining mazmuni har tomonlama tahlil qilindi. Baholash natijalari "Oliy hamshiralik ishi" ta'lim dasturi amaldagi Davlat ta'lim standartlari, Milliy malaka ramkasi, malaka talablari hamda sog'liqni saqlash tizimining ehtiyojlari asosida ishlab chiqilganini, dastur maqsadlari va kutilayotgan ta'lim natijalari aniq belgilanganini ko'rsatdi. Shuningdek, ta'lim mazmunining nazariy tayyorgarlik bilan

bir qatorda amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgani, o'quv jarayoni kasbiy faoliyat talablariga mos ravishda loyihalashtirilgani baholandi. Klinik amaliyot komponentining ta'lim dasturining asosiy tarkibiy qismi sifatida shakllantirilgani hamshiralik sohasida zarur kasbiy bilim, amaliy ko'nikma va klinik qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturining mazmuni akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga to'liq javob berishi aniqlandi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

Baholash davomida o'quv jarayonini tashkil etish va bilimlarni baholash tizimiga oid hujjatlar hamda amaldagi amaliyot kompleks tahlil qilindi. Tahlil natijalari o'quv jarayonini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholash tizimi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida shakllantirilganini, o'quv rejalari, fan dasturlari hamda baholash mezonlari belgilangan tartibda ishlab chiqilganini ko'rsatdi. Shuningdek, bilimlarni shaffof va xolis baholash, yakuniy nazoratlarni tashkil etish hamda akademik halollik tamoyillarini ta'minlashga qaratilgan mexanizmlar amaliyotga joriy etilgani, ta'lim natijalarini monitoring qilish jarayonlari izchil yo'lga qo'yilgani baholandi. Klinik ko'nikmalarni bosqichma-bosqich baholash amaliyotining joriy etilgani talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, kasbiy kompetensiyalarini izchil rivojlantirish va sog'liqni saqlash muassasalarida mustaqil faoliyat yuritishga tayyorlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, o'quv jarayonini tashkil etish va bilimlarni baholash tizimi akkreditatsiya mezonlarida nazarda tutilgan talablarga mosligi bilan tavsiflandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

Talabalar faoliyatini tashkil etish va ularni akademik qo'llab-quvvatlash tizimi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar hamda amaldagi tartiblar kompleks baholandi. Tahlil natijalari talabalar faoliyatini samarali tashkil etish, ularning akademik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-me'yoriy asoslar shakllantirilganini ko'rsatdi. Shuningdek, ta'lim dasturiga qabul qilish tartiblari amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida belgilanganligi, 60 nafar qabul parametri filialning mavjud kadrlar salohiyati, moddiy-texnik bazasi va o'quv-resurs imkoniyatlariga mos ravishda shakllantirilgani baholandi. Talabalarni akademik va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning ta'lim jarayonidagi harakatini boshqarish hamda zarur maslahat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlari

izchil yo'lga qo'yilgani ham o'z aksini topdi. Tibbiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni klinik amaliyot bazalariga biriktirish tartibining aniq belgilanishi amaliy tayyorgarlik sifatini ta'minlash, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va belgilangan o'quv natijalariga erishishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, talabalar faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga javob berishi aniqlandi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

Inson resurslari yo'nalishi doirasida professor-o'qituvchilar tarkibi, ularning kasbiy salohiyati hamda kadrlarni boshqarish tizimi har tomonlama tahlil qilindi. Baholash natijalari filialda inson resurslarini boshqarish, professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va ilmiy salohiyatini oshirishga qaratilgan mexanizmlar samarali shakllantirilganini ko'rsatdi. Shuningdek, pedagog kadrlar faoliyatini baholash, malaka oshirish va rag'batlantirish tartiblari izchil amal qilayotgani, ularning kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgani baholandi. Amaliyotchi shifokorlar va hamshiralarni o'quv jarayoniga jalb etish ta'lim dasturining amaliy yo'nalishini kuchaytirish, talabalarning klinik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta'lim mazmunini sog'liqni saqlash tizimining real ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish tizimi akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga to'liq javob berishi xulosasiga kelindi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi bo'yicha mavjud infratuzilma, o'quv-resurs bazasi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlari kompleks baholandi. Tahlil natijalari ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik bazani shakllantirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilganini, o'quv auditoriyalari, simulyatsiya va amaliyot xonalari, axborot-resurs markazi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari ta'lim jarayonini tashkil etish uchun mavjudligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ayrim indikatorlar bo'yicha raqamli infratuzilmani, jumladan Wi-Fi tarmog'i qamrovini yanada kengaytirish va takomillashtirish zarurligi qayd etildi. Klinik bazalar hamda simulyatsion jihozlarning muntazam yangilanib borilishi talabalarning amaliy tayyorgarligini kuchaytirish, zamonaviy klinik ko'nikmalarni shakllantirish va belgilangan o'quv natijalariga

erishishni ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, aniqlangan takomillashtirish ehtiyojlariga qaramay, moddiy-texnik ta'minot tizimi akkreditatsiya mezonlarida nazarda tutilgan talablarga mos ravishda tashkil etilgani xulosa qilindi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Sifat siyosatining Ilmiy kengash tomonidan tasdiqlangani va rasmiy veb-saytda e'lon qilingani bo'yicha dalillar taqdim etilmadi (1.3-mezon qisman muvofiq).
- ✓ Mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari monitoringi natijalarini tizimli hujjatlashtirish yetarli emas (1.4-mezon qisman muvofiq).
- ✓ Ayrim o'quv xonalarida raqamli infratuzilma, jumladan Wi-Fi qamrovi kuchaytirilishi zarur.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Sifat siyosatini Ilmiy kengashda rasman tasdiqlab, rasmiy veb-saytga joylashtirish hamda monitoring va qayta ko'rib chiqish tartiblarini me'yoriy hujjatlar bilan mustahkamlash (1.3-mezon).
- ✓ Mehnat bozori, ta'lim ehtiyojlari va ilmiy tendensiyalar monitoringini muntazam hujjatlashtirilgan tizimga aylantirib, natijalarini dastur parametrlariga integratsiya qilish (1.4-mezon).
- ✓ O'quv binolarida Wi-Fi va raqamli infratuzilma qamrovini kengaytirish.
- ✓ Xalqaro hamkorlik va klinik almashinuv dasturlarini rivojlantirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filialida 60910600 – “Oliy hamshiralik ishi” bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks tahlil qilindi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturini boshqarishga mas'ul tarkibiy tuzilma va ichki sifatni ta'minlash hamda monitoring qilish tizimi shakllantirilgani, dastur Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi va mehnat bozori ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgani, o'quv jarayoni shaffof baholash hamda akademik halollik tamoyillari asosida tashkil

etilgani, talabalarni qabul qilish va ularni akademik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yo'lga qo'yilgani, professor-o'qituvchilar tarkibi belgilangan talablarga mosligi hamda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur o'quv-moddiy, klinik va raqamli infratuzilma resurslari bilan ta'minlangani o'z aksini topdi. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturi bo'yicha ko'rib chiqilgan 27 ta mezonidan 25 tasi muvofiq, 1.3 va 1.4-mezonlar esa qisman muvofiq deb baholandi. Aniqlangan kamchiliklar ta'lim dasturini amalga oshirish sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydigan hamda amaliy takomillashtirish choralari orqali bartaraf etilishi mumkin bo'lgan xususiyatga ega ekanligi qayd etildi. Umuman olganda, 60910600 – "Oliy hamshiralik ishi" bakalavriat ta'lim dasturi akkreditatsiya mezonlarida belgilangan asosiy talablarga mosligi xulosasiga kelindi. Yakuniy baholash natijasiga ko'ra, ta'lim dasturi muvofiq deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	20.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	5-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

